ANALYSIS OF NATIONAL LEGISLATION ON THE PROCEDURE FOR ADMINISTRATIVE APPEALS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Saidazimov Yusuf Sodiq ugli,

Senior Lecturer of the Department of Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Jalolova Diyora Gayrat kizi,

Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. The effective functioning of the institution of administrative complaints in the regulation of relations between public administration and citizens is an important component of the process of building a state governed by the rule of law. This article analyzes the regulatory and legal foundations of the institution of administrative complaints within the administrative-legal system of the Republic of Uzbekistan. The main objective of the study is to identify the differences and similarities between the three main documents regulating the procedure for administrative complaint proceedings within the framework of current legislation through a comparative legal analysis. The results obtained can be used as a theoretical source in improving legislation, unifying the practice of administrative proceedings, and in legal education. The conclusion of the article puts forward scientific and practical recommendations aimed at eliminating gaps in current legislation.

Keywords: administrative appeal, appellate council, licensing, pre-trial review, legal experiment, administrative procedures

Kirish

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarni sifat jihatidan o'zgartirish vazifasini ko'zlaydi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan "Yangi O'zbekiston" strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri insonparvar va xizmat qiluvchi davlat modeliga o'tishdir (Mirziyoyev, 2021). Bu vazifani amalga oshirishda ma'muriy shikoyat instituti hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu mexanizm orqali fuqarolar davlat organlari qarorlarining noqonuniyligiga e'tiroz bildirishi va buzilgan huquqlarini tiklashi mumkin.

Maqolada hal etilishi lozim bo'lgan markaziy ilmiy muammo ma'muriy va yuqori turuvchi organlar tomonidan shikoyatlarning yetarli darajada xolis hamda samarali ko'rib chiqilmasligi natijasida ma'muriy sudlar yuklamasining asossiz ortib borayotganidir. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2017–2024-yillarda ma'muriy sudlar tomonidan 120 mingga yaqin ish ko'rib chiqilib, ularning 57 %i qanoatlantirilgan (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, n.d). Bu ko'rsatkich ma'muriy organlarda nizolarni sudgacha hal etish mexanizmi amalda samarali ishlamayotganini, natijada fuqarolar o'z huquqlarini tiklash uchun bevosita sudga murojaat qilishga majbur bo'layotganini isbotlaydi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hujjatlarning har biri alohida o'rganilmagani va ular o'rtasidagi farqlar ilmiy jihatdan tahlil qilinmagani uchun amaliyotda qo'llash tartibida noaniqliklar yuzaga kelmoqda. Maqolaning maqsadi har uchala hujjatni alohida-alohida chuqur tahlil qilish, so'ngra ular o'rtasidagi asosiy farqlarni qiyosiy ko'rsatish va bu asosda qonunchilikni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqot doirasida huquqiy fanlarda ilmiy metodlardan biri bo'lgan ilmiylik, xolislik, taqqoslash, qiyosiy-huquqiy, induksiya-deduksiya hamda boshqa metodlardan foydalanilgan.

Asosiy qism

Ilmiy adabiyotlar tahlili huquqshunos olimlar orasida ma'muriy shikoyat bo'yicha ish yuritish tartibi ya'ni ommaviy nizolarni sudgacha bo'lgan hal qilish masalasida turli xil fikrlar mavjud. Xususan, yuridik fanlar doktori B.T. Musayevning fikriga ko'ra bugungi kunda ommaviy boshqaruv organi bilan jismoniy shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan ommaviy-huquqiy nizolar ishini sudgacha hal qilish masalasi e'tibor markazidagi masalalardan biri hisoblanadi. Zero, ma'muriy organ uchun ham unga tegishli ishning sudga yetib borganligi ish samaradorligi maqsadga muvofiq yo'lga qo'yilmaganligining bir ko'rsatkichi hisoblanadi (Muratayev et al., 2022). Professor J. Nematovning (2015) ta'kidlashicha, ishlarni sudgacha hal qilishda ma'muriy shikoyat sud protsessida ma'lum bir ma'muriy qarorning asossiz, noqonuniy ekanligini isbotlash uchun juda ko'p vaqt, dalillar va huquqiy asoslar, shuningdek, moddiy va protsessual qonunchilik bilan o'rnatilgan turli xil me'yorlarning amalga oshirilishi talab qilinadi. B. Umarov va D. Artikovlarning (2018) fikriga ko'ra, ma'muriy shikoyat qilish instituti davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash usullaridan biri sifatida qayd etiladi. B. Qosimov, B. Musayev va D. Artikovlar ham ma'muriy tartibdagi shikoyatni davlat boshqaruvida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini ta'minlash usuli sifatida talqin etgan (Musayev et al., 2021). E. Hayitov esa shikoyatlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralari tayinlash faoliyati ko'plab umumiy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirganini ta'kidlash bilan birga, ushbu faoliyat turlarining har biri o'ziga xos maxsus tartib-qoidalarga muhtoj ekanligini asoslab beradi (Xojiyev, 2006).

Rus olimasi V. Budarina (2007) ham ma'muriy shikoyat fuqarolarning ma'muriy-huquqiy maqomini shakllantirish va ochib berishda muhim huquqiy institut sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlagan. Ushbu institut orqali shaxsning davlat boshqaruvi sohasidagi huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish imkoniyati amalda ro'yobga chiqadi. D. Lifanov (2024) esa yuridik fanlarda suddan tashqari ma'muriy tartibda nizolarni hal etish ya'ni ma'muriy shikoyat shikoyat bo'yicha ish yuritishda yagona tizimi bo'yicha umumiy konsepsiya mavjud emasligini aytgan. Nemis olimasi A. Poschenrider Germaniya huquq tizimida ma'muriy sudga murojaat qilishdan oldin, ma'muriy hujjat ustidan suddan tashqari dastlabki jarayon (Vorverfahren) o'tkazilishi majburiy hisoblanishini keltirib o'tgan (Poschenrieder, 2019). Bu orqali esa milliy olimlarimiz ta'kidlagandek sudlar faoliyatini yanada samarali ishlashiga sharoit yaratilishi mumkin.

Milliy qonunchiligimiz tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvarda qabul qilingan "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni mamlakat ma'muriy huquqi tarixida tub burilish yasagan hamda ushbu sohani tizimli tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qonun ma'muriy shikoyatning obyekti, muddatlari va ish yuritish tartibini izchil ravishda belgilab, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning aniq huquqiy mexanizmini yaratdi. Xususan, P. Kurindin ta'kidlashicha, sudgacha shikoyat qilish samarali bo'lishi uchun shikoyat tushunchasi, ko'rib chiqish muddati, shikoyat predmeti va obyekti umumiy ma'muriy protsedura qonunida aniq belgilanishi kerak. Aks holda u oddiy murojaatlardan ajralmay qoladi va samaradorligi pasayadi (Kuryndin, 2021).

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, manfaatdor shaxsning ma'muriy hujjatlar, protsessual hujjatlar hamda ma'muriy organlar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar ustidan ma'muriy shikoyat berish huquqi kafolatlangan bo'lib, mazkur huquq ma'muriy nizolarni sudgacha hal etishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, ma'muriy shikoyat qonunchilikda belgilangan vakolat doirasida yuqori turuvchi ma'muriy organ yoki boshqa vakolatli ma'muriy organga berilishi mumkin. Mazkur tartib ma'muriy ish yuritishda qulaylik, tezkorlik hamda izchillikni ta'minlashga

xizmat qiladi (O'RQ-457-son, 62, 63-moddalari). Shikoyatni dastlab qabul qilgan ma'muriy organ zimmasiga uni uch ish kuni ichida tegishli vakolatli organga ma'muriy ish materiallari bilan birga yuborish majburiyatining yuklatilishi ma'muriy tartib-taomillarning samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim kafolatlardan biridir (O'RQ-457-son, 64-modda) (Republic of Uzbekistan, 2018). Bu haqida K. Gaziyeu va A. Axrorov (2023) ma'muriy hujjatda aynan shikoyat qilishning muddati va tartibi aniq ko'rsatib o'tilishi kerakligi, bu fuqarolar uchun ma'muriy hujjatga nisbatan keyingi huquqlarini qanday qilib amalga oshirishlari mumkinligini tushunib yetishlariga imkoniyat yaratib berishi, zero, ma'muriy hujjat fuqaroning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjat ekanligini ta'kidlagan.

Shuningdek, qonunchilik manfaatdor shaxsning keyingi huquqiy himoya vositalaridan foydalanish imkoniyatini ham mustahkamlaydi. Jumladan, ma'muriy shikoyatni ko'rib chiqish natijalaridan norozi bo'lgan shaxs yoki yuqori turuvchi ma'muriy organ mavjud bo'lmagan holatlarda ma'muriy hujjat ustidan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi (O'RQ-457-son, 67-modda). Ushbu norma ma'muriy shikoyat institutining sud himoyasi bilan uzviy bog'liqligini hamda ma'muriy va sud tartibidagi himoya vositalarining o'zaro uyg'unligini ko'rsatadi. Yuqori turuvchi organ shikoyatni 30 ish kuni ichida ko'rib chiqib, nizoli hujjatni o'zgarishsiz qoldirish, o'zgartirish yoki uni bekor qilib, zarurat bo'lsa, yangi hujjat qabul qilish vakolatiga ega (O'RQ-457-son, 68-69-moddalari). Xulosa qilib aytganda, O'RQ-457-sonli Qonun doirasidagi ma'muriy shikoyat tartibi fuqarolarning huquqiy himoyasini ta'minlovchi kuchli sudgacha bo'lgan mexanizm hisoblanadi (Republic of Uzbekistan, 2018).

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuni ushbu sohadagi ma'muriy nizolarni sudgacha hal qilishning, ya'ni ma'muriy shikoyatning o'ziga xos va takomillashgan mexanizmini belgilaydi. Qonunchilikda shikoyat berishning differensiallashgan tartibi o'rnatilgan bo'lib, unga ko'ra hududiy darajadagi vakolatli organ qarori ustidan uning yuqori turuvchi organiga, respublika darajasidagi vakolatli organ qarori ustidan esa bevosita ushbu organda tashkil etilgan apellyatsiya kengashiga shikoyat qilinadi. Shu bilan birga, manfaatdor shaxslarda ushbu qarorlar ustidan bevosita sudga shikoyat qilish huquqi har doim saqlanib qoladi (O'RQ-701-son, 58-modda) Shikoyatning shakli, shikoyat berish muddati va mazmuniga qo'yilgan talablar ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan umumiy talablarga mos keladi hamda ular bilan uyg'un holda qo'llaniladi. Ish yuritish jarayonida shikoyatni olgan yuqori organ yoki apellyatsiya kengashi uch ish kuni ichida tegishli axborotni so'rab oladi va shikoyat bo'yicha o'n besh ish kuni ichida yakuniy qaror qabul qilishi shart (O'RQ-701-son, 59, 60-moddalar). Bu protsessual muddat umumiy ma'muriy tartib-taomillarda belgilangan muddatdan ikki baravar qisqaligi bilan ajralib turadi (Republic of Uzbekistan, 2021).

So'nggi yillarda ushbu tizimni yanada takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonida yuzaga keladigan nizolarni tezkor va samarali hal etish maqsadida yangi institutsional yondashuvlar joriy etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-mayda qabul qilingan "Davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq ma'muriy hujjatlar bo'yicha nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yangi tartibini joriy etish to'g'risida"gi qarori alohida e'tiborga molik. Ushbu huquqiy mexanizmning mohiyati shundan iboratki, davlat organlari tomonidan qabul qilingan, qonunchilik hujjatlariga muvofiq emas deb hisoblangan ma'muriy hujjatlar ustidan manfaatdor shaxslar maxsus kollegial organlarga murojaat qilishi mumkin. Avvalo, shikoyat berish tartibi elektronlashtirilgan bo'lib, u davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXP orqali rasmiylashtiriladi (PQ-188-son, 28-30-bandlar). Shikoyatni rad etish asoslarining belgilanishi (PQ-188-son, 33-band) ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u asossiz yoki takroriy murojaatlarni cheklaydi hamda sud va ma'muriy yurisdiksiyalar o'rtasidagi nizolarni oldini oladi. Ko'rib chiqish muddatining 15 ish kuni etib belgilanishi va zaruratga ko'ra 15 kungacha uzaytirilishi (PQ-188-son, 35-band) shikoyatlarni tezkor hal etish bilan birga murakkab ishlar uchun moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Apellyatsiya kengashining qaror qabul qilish tartibi kollegiallikka asoslangan bo'lib, qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va betaraf qolish taqiqlanadi (PQ-188-son, 44-band). Bu esa qaror qabul

qilishda mas’uliyat va aniqlikni kuchaytiradi. Eng muhim jihatlardan yana biri-apellyatsiya kengashi qarorlarining majburiy kuchga ega bo’lishi (PQ-188-son, 51-band) hamda ularning elektron tizimlarda e’lon qilinishi (PQ-188-son, 47-band). Bu normalar shaffoflik va ijro intizomini ta’minlaydi. Shuningdek, shikoyat qanoatlantirilganda ishning avtomatik tarzda qayta ko’rib chiqish bosqichiga qaytarilishi (PQ-188-son, 52, 53-bandlar) fuqarolardan qayta ariza talab etilmasdan huquqiy himoyaning uzluksizligini ta’minlaydi. PQ-188-sonli qarorining yana bir muhim jihati shundaki, Apellyatsiya kengashi qarorlari ma’muriy organlar uchun majburiy va yakuniy hisoblanadi. Bu degani, davlat organlari kengash qarori ustidan shikoyat qila olmaydi hamda uni bajarishi shart. Biroq fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari ushbu qarordan norozi bo’lgan taqdirda sud tartibida nizolashish huquqini saqlab qoladi. Ushbu yondashuv davlat organlari va xususiy shaxslar o’rtasidagi protsessual muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi (President of the Republic Uzbekistan, 2025).

Tadqiqot jarayonida milliy amaliyotda tizimli muammolar aniqlandi. Birinchidan, “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonunning 69-moddasi ikkinchi qismi mazmuni tahlil qilinganda uning tahriri ayrim hollarda fuqarolar tomonidan noto’g’ri talqin qilinishi mumkinligi aniqlanadi. Chunonchi, modda matnida “Manfaatdor shaxs ma’muriy hujjat ustidan berilgan ma’muriy shikoyatni ma’muriy tartibda ko’rib chiqish natijalaridan norozi bo’lgan yoki yuqori turuvchi ma’muriy organ mavjud bo’lmagan taqdirda ma’muriy hujjat ustidan sudga shikoyat qilishga haqli” shaklida bayon etilgan. Mazkur normada manfaatdor shaxs ma’muriy shikoyatni ko’rib chiqish natijalaridan norozi bo’lgan yoki yuqori turuvchi ma’muriy organ mavjud bo’lmagan taqdirda sudga murojaat qilishga haqli ekani qayd etilgan. Biroq ushbu qoida sudga murojaat qilish huquqini cheklovchi yoki uni faqat ma’lum shartlar bilan bog’lovchi majburiy ma’noda emas, balki ma’muriy shikoyat institutining yakuniy bosqichini ifodalovchi umumiy kafolat normasi sifatida talqin etilishi lozim. Ya’ni sudga murojaat qilish huquqi faqat shikoyat natijasidan norozilik yoki yuqori turuvchi organ yo’qligi bilan cheklanmaydi, balki qonunchilikda nazarda tutilgan umumiy sud himoyasi prinsipidan kelib chiqadi. Bu borada D. Leonov (2021) fikricha, sudgacha shikoyat qilish ma’muriy-huquqiy nizolarni hal etishning mustaqil va katta huquqni himoya qilish salohiyatiga ega institut va agar uning standartlari ma’muriy sud ish yuritish standartlariga yaqinlashtirilsa, u fuqarolar uchun suddan ham qulayroq himoya vositasiga aylanishi mumkin. Shu sababli normaning amaldagi tahriri fuqarolarda sudga murojaat qilish faqat ma’muriy bosqich yakunlangandan keyin yoki muqobil organ mavjud bo’lmagandagina mumkin degan noto’g’ri tasavvur uyg’otishi ehtimoli mavjud. Shu nuqtayi nazardan, mazkur normaning mazmunini yanada aniqlashtirish, uning sudga murojaat qilish huquqi bilan o’zaro nisbatini aniqroq ifodalash maqsadga muvofiq bo’lib, bu huquqiy aniqlikni oshirish va amaliyotda turlicha talqinlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, tadqiqot jarayonida “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonunning 69-moddasi hamda Ma’muriy sud ish yuritish to’g’risidagi kodeksning 186-moddasi o’rtasida ayrim normativ nomuvofiqliklar mavjudligi kuzatiladi. Xususan, qonunning 69-moddasiga ko’ra, ma’muriy shikoyat agar boshqa muddat belgilangan bo’lmasa, manfaatdor shaxsga ma’muriy hujjat yoki harakat haqida ma’lum bo’lgan paytdan e’tiboran 30 kun ichida berilishi mumkinligi ta’kidlangan. Biroq Ma’muriy sud ish yuritish to’g’risidagi kodeksning 186-moddasida sudga murojaat qilish uchun umumiy muddat sifatida 6 oy etib belgilangan bo’lib, bu muddat shaxsga huquqlari buzilganligi ma’lum bo’lgan paytdan boshlanadi. Shu jihatdan, ma’muriy tartibdagi shikoyat va sud tartibidagi murojaat muddatlari o’rtasida sezilarli farq mavjudligi aniqlanadi. Mazkur nomutanosiblik amaliyotda fuqarolar uchun huquqiy noaniqlikni keltirib chiqarishi mumkin, chunki ma’muriy shikoyatni 30 kunlik muddat bilan cheklash va sudga murojaat qilishni 6 oylik muddat bilan belgilash yagona huquqiy himoya tizimi doirasida turlicha yondashuvni shakllantiradi. Natijada shaxslar qaysi tartib va qaysi muddat ustuvor ekanligi borasida tushunmovchilikka duch kelishi ehtimoli ortadi. Shu sababli mazkur institutlar o’rtasida yagona yondashuvni shakllantirish, ya’ni ma’muriy shikoyat va sudga murojaat qilish muddatlarini tizimli uyg’unlashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu esa nafaqat huquqiy aniqlikni oshiradi, balki ma’muriy va sud himoyasi mexanizmlarining o’zaro izchilligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Uchinchidan, yuqorida keltirilgan milliy va xalqaro olimlar fikrlariga ko'ra, ma'muriy shikoyat institutining asosiy ahamiyati nizolarni sudgacha bo'lgan bosqichda samarali hal etishda namoyon bo'ladi. Xususan, Germaniya ma'muriy huquq tizimi tajribasi shuni ko'rsatadiki, sudgacha majburiy ma'muriy shikoyat (Vorverfahren/Widerspruchsverfahren) instituti ommaviy-huquqiy nizolarni samarali hal etishda muhim protsessual vosita hisoblanadi. Germaniya Ma'muriy sud ish yuritish to'g'risidagi kodeksining 68-moddasiga ko'ra, sudga murojaat qilishdan oldin nizoli ma'muriy hujjatning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi ma'muriy organ tomonidan qayta ko'rib chiqiladi. Bu esa nizoni sud aralashuvisiz ichki ma'muriy tartibda bartaraf etish imkonini beradi (Federal Republic of Germany, 1960). Shu bilan birga, bu tizim ma'muriy organlarning mas'uliyatini oshirib, qarorlar sifati va asoslanganligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu borada U. Kramer va T. Hinrichsenning ta'kidlashicha, mazkur mexanizmning asosiy vazifasi ma'muriy organga nizoni sud bosqichiga olib chiqmasdan hal etish uchun "ikkinchi imkoniyat" yaratishdan iborat (Kramer & Hinrichsen, 2015).

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy shikoyat instituti joriy etilgan bo'lsa-da, sudga murojaat qilishdan oldin majburiy ma'muriy ko'rib chiqish bosqichi umumiy va yagona tartib sifatida to'liq shakllanmagan. Shu sababli Germaniya tajribasi ma'muriy shikoyatni sudgacha majburiy bosqich sifatida yanada institutsionalizatsiya qilish imkoniyatini ko'rsatadi. Biroq ushbu modelni milliy huquq tizimiga to'liq va bevosita joriy etish ma'muriy organlarning institutsional salohiyati, xolislik kafolatlari hamda fuqarolarning sudga bevosita murojaat qilish huquqi bilan bog'liq ayrim muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois Germaniya tajribasini O'zbekistonda bosqichma-bosqich takomillashtirilgan va kafolatlangan shaklda qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, ma'muriy shikoyat instituti samaradorligi va uning ta'sirchanligi shikoyatni ko'rib chiquvchi vakolatli organning iyerarxik bo'ysunuvdan xolisligi hamda protsessual jihatdan mustaqilligiga bevosita bog'liq shu sababli ma'muriy organlar doirasida iyerarxik bog'liqlikdan xoli bo'lgan hamda nizolarni kollegial eshitish orqali hal etadigan mustaqil apellyatsiya mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, ma'muriy shikoyat bo'yicha ish yuritishda protsessual muddatlar va tartiblarning tarqoqligi, shuningdek, ixtiyoriylik tamoyilining nomutanosibliigi ma'muriy sudlar yuklamasining asossiz ortishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqib, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 69-moddasi uchinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi:

"Ma'muriy shikoyat berish manfaatdor shaxsning bevosita sudga murojaat qilish huquqini cheklamaydi".

Jismoniy va yuridik shaxslarni ma'muriy organlar tomonidan shikoyatlarni noto'g'ri baholash holatlaridan himoya qilish maqsadida "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunni "murojaatni mazmuni bo'yicha kvalifikatsiya qilish" prinsipi bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Shu sababli ushbu qonunga kiritilayotgan normaning quyidagi tahriri taklif etiladi:

"Ma'muriy organga mazmunan ma'muriy hujjat, ma'muriy harakat yoki harakatsizlik ustidan berilgan shikoyat uning nomidan qat'i nazar, ma'muriy shikoyat sifatida ko'rib chiqiladi va unga ushbu qonunda belgilangan protsessual kafolatlar qo'llaniladi".

Ma'muriy shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan qaror ustidan sudga murojaat qilish muddatlaridagi keskin tafovut fuqarolarning sud himoyasiga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishda jiddiy protsessual to'siqlarni keltirib chiqarmoqda. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ish yuritish to'g'risidagi kodeksi va "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 69-moddasidagi sudga murojaat qilish muddatini mazkur kodeks normalari bilan o'zaro muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi mamlakatimizda ma'muriy adolat tizimi samaradorligini oshirishga, ma'muriy sudlar yuklamasini kamaytirishga hamda fuqarolarning adolatli davlat boshqaruviga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini real ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

- Budarina, V. A. (2007). *Administrativnaya zhaloba: materialnoe i protsessualnoe pravovoe issledovanie* [Administrative complaint: substantive and procedural legal research] (Doctoral dissertation). Voronezh State University.
- Federal Republic of Germany. (1960). *Verwaltungsgerichtsordnung (VwGO) vom 21. Januar 1960* [Administrative Court Procedure Code of Germany] (§ 68 Abs. 1).
- Gaziyev, K. J., & Axrorov, A. A. (2023). *Ma'muriy huquq* [Administrative law]. TSUL Publ.
- Kramer, U., & Hinrichsen, T. (2015). German law of administrative court procedure: An overview. *Journal of Siberian Federal University. Humanities & Social Sciences*, 8(10), 2050–2061. <https://doi.org/10.17516/1997-1370-2015-8-10-2050-2061>
- Kuryndin, P. A. (2021). *Dosudebnoe obzhalovanie deystviy (bezdeystviya) ili resheniy administrativnykh organov: opyt Rossii i Frantsii* [Pre-trial appeal against actions (inaction) or decisions of administrative bodies: The experience of Russia and France] (Candidate dissertation). Saint Petersburg State University.
- Leonov, D. V. (2021). *Administrativno-pravovoy institut dosudebnogo obzhalovaniya* [Administrative and legal institution of pre-trial appeal] (Doctoral dissertation). Institute of Legislation and Comparative Law under the Government of the Russian Federation.
- Lifanov, D. M. (2024). *Administrativnyy poryadok razresheniya pravovykh sporov: voprosy materialnogo i protsessualnogo prava* [Administrative procedure for resolving legal disputes: issues of substantive and procedural law] (Doctoral dissertation). Ural State Law University named after V.F. Yakovlev.
- Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O'zbekiston strategiyasi* [New Uzbekistan strategy]. O'zbekiston.
- Muratayev, S. A., Musayev, B. T., & Artikov, D. R. (2022). *Ma'muriy huquq va protsess* [Administrative law and process]. Yuridik Adabiyotlar Publ.
- Musayev, B., Artikov, D., & Qosimov, B. (2021). *Ma'muriy huquq va protsess* [Administrative law and process]. TSUL Publ.
- Nematov, J. (2015). *O'zbekiston Respublikasida ma'muriy protseduralarni takomillashtirish: Ma'muriy huquq asoslari: Qiyosiy-huquqiy tahlil* [Improving administrative procedures in the Republic of Uzbekistan: Fundamentals of administrative law: Comparative legal analysis]. Spectrum Media Group.
- Poschenrieder, A. S. (2019). *Außergerichtliche Vorverfahren im Verwaltungsrecht: Das Widerspruchsverfahren im allgemeinen Verwaltungsrecht, das Einspruchsverfahren im Steuerrecht und das Widerspruchsverfahren im Sozialrecht* [Out-of-court preliminary proceedings in administrative law: Objection procedures in general administrative, tax, and social law]. Duncker & Humblot.
- President of the Republic of Uzbekistan. (2025, May 19). *Resolution "On the introduction of a new procedure for the pre-trial consideration of disputes concerning administrative acts related to the provision of public services as a legal experiment"* (No. RP-188). Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-7532799>
- Republic of Uzbekistan. (2018, January 8). *Law "On administrative procedures"* (No. LRU-457). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-3492199>
- Republic of Uzbekistan. (2021, July 14). *Law "On licensing, permit issuance, and notification procedures"* (No. LRU-701). Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-5511879>
- Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (n.d.). *Rasmiy veb-sayt* [Official website]. <https://sud.uz>
- Umarov, B., & Artikov, D. (2018). *Ma'muriy huquq va protsess* [Administrative law and process]. TSUL Publ.
- Xojiyev, E. T. (2006). *Ma'muriy huquq* [Administrative law]. National Digital Library of Uzbekistan Unilibrary. <https://api.unilibrary.uz/storage/PublisherResourceFile/546896/images/1721106452.pdf>

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.